

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**




**TASHQI SIYOSIY FAOLIYAT**  
**FANINING O‘QUV DASTURI**

- Bilim sohasi:** 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
- Ta’lim sohasi:** 310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga oid fanlar
- Ta’lim yo‘nalishi:** 60310200 – Xalqaro munosabatlar

Tashqi siyosat va xalqaro  
iqtisodiy munosabatlar  
instituti direktori

  
\_\_\_\_\_ G'.Arifjanov

Xalqaro munosabatlar  
kafedrasi mudiri

  
\_\_\_\_\_ S.Bo'ronov

ARM boshlig'i

  
\_\_\_\_\_ M.Yuldasheva

<b>Fan/modul kodi</b> TSF1604		<b>O'quv yili</b> 2027/2028	<b>Semestr</b> 6	<b>ECTS — Kreditlar</b> 4	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy		<b>Ta'lim tili</b> O'zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>	
	Tashqi siyosiy faoliyat	48	72	120	
2.	<p align="center"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – talabalarga tashqi siyosiy faoliyatning nazariy asoslarini, ustuvor yo'nalishlari, O'zbekiston tashqi siyosatini tahlil etishni o'rgatish hamda ularni amaliyotda tadbiiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> - talabalarda fanning nazariy va amaliy masalalari hamda Tashqi siyosiy faoliyatni o'rgatish orqali bilim hamda ko'nikmani shakllantirishdan iborat.</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi <b>Harvard University (ARWU 2)</b> xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p><a href="https://jkertzer.sites.fas.harvard.edu/Teaching_files/Gov-1790-Syllabus-AU-2024-032524.pdf?utm_source=chatgpt.com">https://jkertzer.sites.fas.harvard.edu/Teaching_files/Gov-1790-Syllabus-AU-2024-032524.pdf?utm_source=chatgpt.com</a></p> <p align="center"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p align="center"><b>III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Tashqi siyosat tushunchasi, mazmun va mohiyati.</b></p> <p>Tashqi siyosat tushunchasi, mohiyati va unga doir turli nazariyalar, bugungi kunda tashqi siyosatning tashkiliy va huquqiy asoslari, davlatlar tashqi siyosatining shakllanishi va rivojlanishi.</p> <p><b>2-mavzu. Tashqi siyosiy faoliyatni amalga oshiruvchi organlar.</b></p> <p>Davlat rahbari, hukumat, parlament, tashqi ishlar vazirliklari, turli vazirlik va idoralarning tashqi siyosiy faoliyat bilan bog'liq funksional vazifalari.</p> <p><b>3-mavzu: Tashqi siyosiy faoliyatda diplomatiya.</b></p> <p>Diplomatiya – tashqi siyosiy faoliyatning vositasi sifatida, an'anviy va zamonaviy diplomatiya turlari va tushunchali mohiyati, tashqi siyosiy faoliyatda diplomatlarning o'rni va roli.</p> <p><b>4-mavzu. AQSh tashqi siyosiy faoliyati.</b></p> <p>AQSh tashqi siyosatining shakllanish bosqichlari, doktrinalar, Davlat</p>				

departamenti, AQSh tashqi siyosiy faoliyatini amalga oshiruvchi organlar, AQSh tashqi siyosatining huquqiy asoslari, Qo'shma Shtatlarning mintaqaviy va xalqaro tashkilotlardagi o'rni.

#### **5-mavzu. Yevropa Ittifoqi tashqi siyosiy faoliyati.**

Yevropa Ittifoqi tashqi siyosatining shakllanishi, Ittifoq davlatlarining tashqi siyosatga oid huquqiy faoliyati, Yevropa Ittifoqining tashqi siyosiy organlari, Yevropa Ittifoqi tashqi siyosiy faoliyatining ustuvor yo'nalishlari.

#### **6-mavzu. Rossiya tashqi siyosiy faoliyati.**

Rossiya tashqi siyosatining shakllanishi, ustuvor yo'nalishlari va huquqiy asoslari, Rossiya tashqi siyosiy faoliyat organlari, Rossiyaning mintaqaviy va xalqaro tashkilotlardagi o'rni.

#### **7-mavzu. Xitoy tashqi siyosiy faoliyati.**

Xitoy tashqi siyosatining shakllanishi, ustuvor yo'nalishlari va huquqiy asoslari, Xitoy tashqi siyosiy faoliyat organlari, Xitoyning mintaqaviy va xalqaro tashkilotlardagi o'rni.

#### **8-mavzu. Arab davlatlari tashqi siyosiy faoliyati.**

Arab davlatlarida tashqi siyosiy faoliyat va uning o'ziga xos jihatlari, arab davlatlari tashqi siyosiy organlari, huquqiy asoslari va tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari, arab davlatlari tashqi siyosati qiyosiy-siyosiy tahlili.

#### **9-mavzu. Turkiya tashqi siyosiy faoliyati.**

Turkiya tashqi siyosatining shakllanishi, ustuvor yo'nalishlari va huquqiy asoslari, Turkiya tashqi siyosiy faoliyat organlari, Turkiyaning mintaqaviy siyosiy jarayonlardagi o'rni.

#### **10-mavzu. Hindiston va Pokiston tashqi siyosiy faoliyati.**

Hindiston tashqi siyosatining shakllanishi, ustuvor yo'nalishlari va huquqiy asoslari, Hindiston tashqi siyosiy faoliyat organlari, Hindistonning mintaqaviy va xalqaro tashkilotlardagi o'rni. Pokiston tashqi siyosatining shakllanishi, ustuvor yo'nalishlari va huquqiy asoslari, Pokiston tashqi siyosiy faoliyat organlari, Pokistonning mintaqaviy siyosiy jarayonlardagi o'rni.

#### **11-mavzu: Eron tashqi siyosiy faoliyati**

Eron tashqi siyosatining shakllanishi, ustuvor yo'nalishlari va huquqiy asoslari, Eron tashqi siyosiy faoliyat organlari, Eronning mintaqaviy siyosiy jarayonlardagi o'rni.

#### **12-mavzu. O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyati.**

O'zbekiston tashqi siyosatining shakllanishi, ustuvor yo'nalishlari va

huquqiy asoslari, tashqi siyosiy faoliyat organlari, Markaziy Osiyo mintaqasida O'zbekiston tashqi siyosati, preventiv diplomatiya, O'zbekistonning xalqaro va mintaqaviy tashkilotlardagi tashqi siyosiy faoliyati va roli.

### **III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR**

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar **"Tashqi siyosiy faoliyat"** fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

**"Tashqi siyosiy faoliyat"** fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

1. Tashqi siyosat tushunchasi, mazmun va mohiyati.
2. Tashqi siyosiy faoliyatni amalga oshiruvchi organlar.
3. Tashqi siyosiy faoliyatda diplomatiya
4. AQSh tashqi siyosiy faoliyati.
5. Yevropa Ittifoqi tashqi siyosiy faoliyati
6. Rossiya tashqi siyosiy faoliyati.
7. Xitoy tashqi siyosiy faoliyati.
8. Arab davlatlari tashqi siyosiy faoliyati.
9. Turkiya tashqi siyosiy faoliyati.
10. Hindiston va Pokiston tashqi siyosiy faoliyati.
11. Eron tashqi siyosiy faoliyati.
12. O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyati.

### **IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR**

#### **Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:**

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilish, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

*Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- badiiy-ijodiy ishni bajarish;</li> <li>- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;</li> <li>- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;</li> <li>- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;</li> <li>- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;</li> <li>- ilmiy maqola, tezislari va ma'ruza tayyorlash;</li> </ul> <p><b>“Tashqi siyosiy faoliyat ” fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan berilishi tavsiya etiladi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Markaziy Osiyo mintaqasi “Heartland” nazariyasi talqinida</li> <li>2. Markaziy Osiyo mintaqaviy muammolari: O'zbekistonning zamonaviy yondashuvlari.</li> <li>3. Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyodagi manfaatlari qiyosiy-siyosiy tahlili.</li> <li>4. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi va Shanxay hamkorlik tashkiloti: geosiyosiy jihatlar qiyosiy tahlili.</li> <li>5. O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorligi: retrospektiv va perspektiv yondashuvlar.</li> <li>6. C5+1 muloqotining geosiyosiy xususiyatlari va unda O'zbekistonning roli.</li> <li>7. Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo: mintaqaviy integratsiya tajribasi.</li> <li>8. 6+2 va 6+3 muloqot guruhlarining SWOT tahlili.</li> <li>9. TUTAP va CASA 1000 lohiyalarining qiyosiy-siyosiy tahlili: muammolar va imkoniyatlar.</li> <li>10. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvi O'zbekiston mintaqaviy diplomatiyasining muhim mexanizmi sifatida.</li> <li>11. Hindiston va O'zbekiston: strategik hamkorlik istiqbollari.</li> <li>12. Eron va Markaziy Osiyo: mushtarak manfaatlar va mavjud muammolar.</li> <li>13. Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi strategiyasi (infografik tahlil asosida).</li> <li>14. Mozori Sharif-Hirot temir yo'l loyihasi PEST tahlili.</li> <li>15. O'zbekistonning Afg'oniston muammosini hal etishdagi preventiv diplomatiyasi.</li> </ol> <p>Talabalarni mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli “Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida”gi buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.</p> <p>Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMISda ilova qilish, shuningdek, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.</p>
3.	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b><i>Talaba bilishi kerak:</i></b></p>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tashqi siyosiy faoliyat negizlari, uning nazariy-konseptual jihatlari, mintaqada sodir bo'layotgan siyosiy voqealar va muammoli masalalar baqida <b>tasavvurga ega bo'lishi bilishi kerak</b>;</li> <li>• Yetakchi va mintaqaviy davlatlar hamda O'zbekiston tashqi siyosatini tahlil qilish usullarini, sodir bo'layotgan mintaqaviy siyosiy voqealarni va yangiliklarni, olimlar, soha ekspertlari va siyosatchilarning qarashlari va ularning nazariy mulohazalaridan foydalana olishni bilishi va ulardan o'z o'rnida foydalana olishi;</li> <li>• Mustaqil bilimlarni egallash, siyosiy tahlil usullari yordamida kompyuter texnikasi va axborot tizimlaridan unumli foydalanish, o'z kasbiy</li> <li>• faoliyatida zarur bo'lgan siyosiy axborotni to'plash, saqlash va qayta ishlashning usullarini bilish, yangi bilimlarni o'la bilish, zamonaviy axborot-ta'lim texnologiyalarini fan doirasida qo'llay olish <b>ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak</b>.</li> <li>• hozirgi sharoitda davlatlar tashqi siyosatining turli jihatlarini ilmiy jihatdan o'rganish <b>malakalariga ega bo'lishi kerak</b>.</li> </ul>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash.</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, mustaqil ta'lim bo'yicha hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish va/yoki og'zaki imtihonni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Основы теории международных отношений: Опыт ИМЭМО в 1970-е годы / Кол. авторов под ред. акад. Н. Н. Иноземцева. — М.: Издательство «Аспект Пресс», 2022. — 623 с.</li> <li>2. Цыганков П.А. Теория международных отношений. — М.: Гардарики, 2003. — 590 с.</li> <li>3. Kenneth W.Abbott. Modern International Relations Theory: A Prospectus for International Lawyers. Arizona State University. — 408 p.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.</li> <li>2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida</li> </ol>

demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023

3. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.
4. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. –Toshkent: O'zbekiston, 2022.
5. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.
6. Бжезинский З. Великая шахматная доска. [пер. с англ. О. Уральской]. – Москва.
7. Ari, T. (2009). *Uluslararası ilişkiler ve dış politika*. Mkm Yayıncılık.
8. McCauley M. Afghanistan and Central Asia: A Modern History. – London: Pearson Education, 2002.
9. Morgenthau, Hans J. (1948). Politics among Nations: The Struggle for Power and Peace. New York: Alfred A. Knopf, Inc.
10. Dhaka A. South Asia and Central Asia: Geopolitical dynamics. – Jaipur: Mangal Deep Publications, 2001.
11. Хайдаров. А. Центральная Азия во внешней политике Исламской Республики Иран. –Т.:ТашГИВ, 1998. –227 с.;

#### Scopusdan maqolalar

12. Holland, J. (2013). Foreign policy and political possibility. *European Journal of International Relations*, 19(1), 49-68. <https://doi.org/10.1177/1354066111413>
13. Mouritzen, H. (2005). Kenneth Waltz: a critical rationalist between international politics and foreign policy. In *The future of international relations* (pp. 84-108). Routledge. <https://megalecture.com/wp-content/uploads/2022/06/Future-of-international-relations.pdf#page=85>
14. Walt, S. M. (2005). The relationship between theory and policy in international relations. *Annu. Rev. Polit. Sci.*, 8(1), 23-48. <https://doi.org/10.1146/annurev.polisci.7.012003.104904>

#### Axborot manbalari

15. <http://www.ziyo.net>
16. <http://www.maphistory.info/>
17. <http://www.history.ru>
18. <https://www.ipsa.org/>
19. <https://johncabot.libguides.com/politicalscience/websites>
20. <https://icssr.org/>

6. Fanning o'quv dasturi "Xalqaro munosabatlar" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2025-yil 18-iyundagi 21-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.  
O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil 28-iyundagi 11-sonli bayoni bilan tasdiqlangan

7.	<b>Fan/modul uchun mas'ul:</b> H.Y.Azimov – TDSu, “Xalqaro munosabatlar” kafedrası dotsenti v.b., PhD
8.	<b>Taqrizchilar:</b> S.M.Bo‘ronov – “Xalqaro munosabatlar” kafedrası mudiri, siyosiy fanlar doktori, dotsent M.M.Muhammadsidiqov –O‘zbekiston musulmonlari odorasi muftiy o‘rinbosari, siyosiy fanlar doktori.